IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

JANUBIY O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISTIQOMAT QILUVCHI TOJIKLARNING HAYOTIDA KIYIM-KECHAKLARNING O‘RNI

Ahmedov Sardor Sayriddin o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tarix va falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (phd)
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20590190

Annotatsiya
Voha xayotida muhim tadqiqotlarda sabab bo‘lgan tikuvchilik bichuvchilikik faoliyatida, ularning tarixan yashovchanlik bosqichlari ma’lum etnik urug‘lar nomlariga oid ma’lumotlarni ilmiy o‘rganish asosida tahlil etildi. Tojiklarning vohaga kelib joylashuvi, sharqshunos va etnolog olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarni natijalari, qabilaviy urug‘larga bo‘linishining xo‘jalik xayoti bilan bog‘lik ma’lumotlar tarixiy-etnografik, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.
Kalit so‘zlar: Janubiy O‘zbekiston, tojiklar, an’anaviy kiyim, tikuvchilik, bichuvchilik, etnografiya, urug‘-qabila, madaniy meros, voha madaniyati.

Abstract: The research on the importance of weaving and weaving activities in the life of the oasis, their historical stages of existence were analyzed based on the scientific study of information on the names of certain ethnic tribes. The location of the Tajiks in the oasis, the results of scientific research conducted by orientalists and ethnologists, and the division into tribal tribes were scientifically analyzed.
Key words: Southern Uzbekistan, Tajiks, traditional clothing, sewing, weaving, ethnography, clan, cultural heritage, oasis culture

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyatida kiyim-kechak muhim etnografik unsur hisoblanadi. Ayniqsa, Janubiy O‘zbekiston hududlarida istiqomat qiluvchi tojik aholisi orasida kiyim-kechak nafaqat maishiy ehtiyoj, balki milliy qadriyat, ijtimoiy mavqe va etnik mansublikni ifodalovchi vosita sifatida shakllangan. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida yashovchi tojiklarning an’anaviy liboslari uzoq tarixiy jarayonlar davomida mahalliy iqlim, xo‘jalik yuritish usuli va qo‘shni xalqlar bilan madaniy aloqalar ta’sirida rivojlangan.

Janubiy O‘zbekiston qadimdan turli xalqlar va etnik guruhlar yashab kelgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda yashovchi tojik aholisining kundalik turmushi, hunarmandchiligi va kiyinish madaniyati o‘ziga xos tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular voha madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Surxon vohasi tojiklarining an’anaviy moddiy va ma’naviy madaniyati masalalari mintaqaviy asosda, ya’ni kichik voha misolida maxsus dissertatsion tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan.

Tojiklarning an’anaviy kiyimlari va taqinchoqlari bo’lmish moddiy madaniyatning bir qismini tashkil etibgina qolmay, xalqimizning milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. Boshqa xalqlar kiyimlari singari tojiklarning ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, an’analarning tasirida asrlar o‘tishi davomida o‘ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan. Rus olimasi O.A.Suxareva ta’biri bilan aytganda. Kiyimning yuzaga kelishi va

turlarining ko‘payishida kishilarning yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o‘sishi ham asosiy omillardandir.

Mavzuning dolzarbligi

Tojiklarning vohaga joylashuvi va etnik tarkibi

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Janubiy O‘zbekiston hududlariga tojik aholisi turli davrlarda ko‘chib kelgan. Ularning ayrim qismi qadimdan vohalarda yashab kelgan bo‘lsa, boshqa guruhlar savdo, dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan bog‘liq ravishda hududga joylashgan. Sharqshunos va etnolog olimlarning tadqiqotlarida Surxondaryo vohasidagi tojiklarning mahalliy etnik guruhlar bilan uzoq tarixiy aloqalari mavjudligi qayd etiladi.

Tojiklar orasida urug‘ va qabila nomlari bilan bog‘liq ko‘plab etnografik ma’lumotlar uchraydi. Mazkur urug‘lar ko‘pincha ma’lum kasb-hunar yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq holda shakllangan. Jumladan, ayrim urug‘larning nomlari tikuvchilik, mato tayyorlash yoki hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganligi kuzatiladi.

An’anaviy xalq kiyimlari asrlar osha takomillashib, shakllanib kelgan. Mato tayyorlash usullari O‘zbekiston hududi, qolaversa Surxon vohasida asosan uy sharoitida tayyorlangan. Vaho aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lganligi uchun matolar paxta va jundan, ma’lum miqdorda esa pilladan tayyorlangan. Denov markazi, Sangardak, Xonjiza, Sina, Nelu, kabi hududlarda teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o‘ziga xos tarzda rivojlangan.

Kiyim-kechaklarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni

Janubiy O‘zbekiston tojiklari hayotida kiyim-kechak muhim ijtimoiy va ma’naviy ahamiyat kasb etgan. Liboslar kishining yoshi, oilaviy holati, jamiyatdagi mavqei hamda etnik mansubligini belgilovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, ayollar kiyimlari bezaklari, mato turi va ranglari orqali alohida ajralib turgan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Maqsad:

Erkaklar orasida chopon, belbog‘, do‘ppi va keng bichimli kiyimlar keng tarqalgan bo‘lsa, ayollar atlas, adras va ipak matolardan tikilgan uzun ko‘ylaklar kiyganlar. Kiyimlarda milliy naqsh va kashtachilik elementlarining qo‘llanilishi xalqning estetik qarashlarini ifodalagan.

Vazifalar:

- Tikuvchilikning dastlabki bosqichlarini aniqlash;
- turli tarixiy davrlarda hunar turlarining rivojlanishini o‘rganish;
- madaniy va texnologik almashinuv jarayonlarini tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari

Tojik oilalarida kiyim-kechak tayyorlash jarayoni an’anaviy hunarmandchilikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, qiz bolalarni yoshligidan tikuvchilik va bichuvchilikka o‘rgatish oilaviy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan.

Vohada jundan mato to‘qishda o‘rmak dan ham keng foydalanilgan. Jundan kigiz, gilam shuningdek, xurjin, qop, chakmon, hamda turli xildagi arqon iplar tayyorlangan. Mol terisidan ishlov berib, bosh va oyoq kiyim-choriq tikishgan. Bu nafaqat Surxon vohasi yoki O’zbekistonning barcha hududida, chunonchi O’rta osiyo va boshqa hududlarda ham mavjud bo‘lgan. An’anaviy kiyimlar har bir xalq moddiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida mazkur xalqning kelib chiqishi, turmush tarzi, estetik didi hamda maxalliy xususiyatlarini to‘laroq anglab olishga yordam beradi. Shuingdek, an’anaviy kiyimlar xalqning moddiy farovonligini aks ettiruvchi vositalardan biri bo’lib kelmoqda. Kiyimlar xalq tarixini chuqur o‘rganishda qimmatli ma’lumotlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Keksa axborotchilarning aytishicha voha tojiklari orasida qadimgi urf-odatlarga ko‘ra kiyim bichishda yoki uning qiyqimlariga yomon ko‘zli yoki

nazari bor kishilarning nigohi tushsa o‘sha kiyimni kiygan kishi kasallanadi, degan e’tiqodlar bo‘lgan.

Tikuvchilik va bichuvchilik faoliyatining tarixiy bosqichlari

Voha hududlarida tikuvchilik va bichuvchilik faoliyati qadimiy hunar turlaridan biri sanaladi. Mahalliy ustalar tomonidan kiyimlarni qo‘lda bichish va tikish usullari avloddan-avlodga o‘tib kelgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida hunarmandchilik markazlarining rivojlanishi natijasida tikuvchilik faoliyati yanada taraqqiy etgan.

Tikuvchilik faoliyatining rivojlanishida mahalliy bozorlardagi savdo aloqalari ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Hisor hududlari bilan bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar mato va kiyim-kechak madaniyatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Bichuvchilik san’ati nafaqat kiyim tayyorlash jarayoni, balki xalqning estetik didini namoyon qiluvchi madaniy hodisa sifatida ham shakllangan. Har bir hududning o‘ziga xos bichim usullari mavjud bo‘lib, ular etnik xususiyatlarni aks ettirgan.

Voha tojiklarining an’anaviy kiyimlarida o‘zlariga xos bo’lgan mintaqaviy va etnik ko‘rinishlarni saqab qolgan. Bu o‘ziga xoslik an’anaviy kiyimlarning bichilishida, tikilishida, matolarning tanlanishida o‘z aksini topgan. Masalan, tadqiqotlar jarayonida olingan ma’lumotlarga qaraganda bichikchilar har doim ham matolarni qaychi bilan kesishmagan, balki qo‘l bilan yirtib ayrim qiyiq joylarni pichoq bilan kesishgan. Kesishlar asosan bo‘y, yeng va yon qiyiqlardan iborat bo‘lib, aksariyat qo‘lda tikilgan. Bichikchi va tikuvchilar u yoki bu kiyimlik matodan iloji boricha qiyqim chiqarmaslikka harakat qilishgan. Chunki matolarning eni shuni taqozo etgan. Bichuvchilar faqat bichish ishlari bilan shug’ullangan bo’lsalarda tikuvchilar faqat tikishishlarini olib borishgan.

Muhokama

Kiyim-kechak va xo‘jalik hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlik

Tojiklarning xo‘jalik faoliyati kiyim-kechaklarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi kundalik mehnatga mos qulay va keng kiyimlarni afzal ko‘rgan. Chorvachilik bilan shug‘ullangan hududlarda esa qalin matodan tayyorlangan issiq kiyimlar keng tarqalgan.

Shuningdek, iqlim sharoiti ham kiyimlarning material tanloviga ta’sir qilgan. Tog‘li hududlarda jun va qalin matolar ishlatilgan bo‘lsa, voha hududlarida ipak va paxta matolaridan foydalanilgan.

Liboslar davrlar o‘tishi bilan, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos tarzda rivojlanib borishda davom etgan. Bu esa tadqiqotchilardan kiyimlarning tarixini o‘rganishda va uni yoritishda katta mas’uliyatlarni ham talab etadi. Chunki xalqlarning etnik tarkibini o‘rganishda hamda uni ilmiy asoslashda kiyimlarning davrlar o‘tishiga qaramasdan o‘z milliyligini saqlab qolganligi o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligi muhim xisoblanadi.

Eng avvalo, kiyim-kechaklarni ilmiy tahlil etishda ularning asosini tashkil etgan matolar va mato tayyorlash usullariga to‘xtalmoq lozim.

XX asr oxiri – XXI asrning birinchi yarmida Surxon vohasida tojiklarining kiyim-kechaklar uchun zarur bo‘ladigan matolar asosan uy sharoitida tayyorlangan. Hudud Tojik aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lganligi uchun matolar paxta va jundan, ba’zi hollarda esa ipakdan tayyorlangan. XX asrning boshlariga qadar Denov markazi, Vaxshivor, Sangardak, Xonjiza, Sina, Sayrob, Darband kabi hududlardagi tojik aholisida teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o‘ziga xos tarzda rivojlangan.

Voha tojiklarning kam sonli etnik guruhlari paxtadan turli xildagi matolar to‘qigan. Umuman, xalqona kiyimlar uchun asos bo‘lgan matolarni tayyorlashda ham badiiy uslub asta-

sekin o‘zgarib bordi, ammo XX asrning 20-yillari oxiridayoq to‘qish texnikasida muayyan siljishlar sodir bo‘lgan. Chunonchi, mahalliy tojik ustalar tomonidan ishlab chiqariladigan matolarga fabrika iplarining qo‘shilishi, jumladan, mahalliy usulda tayyorlanadigan alachalarga Rossiya fabrikalarida tayyorlangan iplarni qo‘shib tayyorlash ularning yuqori sifatli, nafis va tekis matoga aylanishiga olib kelgan. Lekin sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ishlab chiqarilgan matolar o‘zining an’anaviy ko‘rinishini saqlab qoldi. Bu davrda voha tojik aholisi kiyimlari avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadimiy matolardan – olacha, bo‘z, xonatlas, shoyi, beqasam, adras, va boshqa matolardan tikilgan.

XULOSA

Janubiy O‘zbekiston hududlarida istiqomat qiluvchi tojiklarning kiyim-kechak madaniyati xalqning tarixiy-etnik taraqqiyoti, xo‘jalik faoliyati va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tikuvchilik va bichuvchilik faoliyati esa voha madaniyatining ajralmas qismi sifatida shakllangan bo‘lib, u xalqning estetik qarashlari va hunarmandchilik an’analarini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tojiklarning an’anaviy kiyimlari nafaqat maishiy ehtiyoj mahsuli, balki etnik identifikatsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli mazkur madaniy merosni ilmiy o‘rganish va saqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreev M.S. Tadjiki doliny Surxana. Moskva, 1959.
2. Suxareva O.A. Buxoro o‘zbeklari va tojiklarining etnografiyasi. Toshkent, 1966.
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
4. Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari an’anaviy madaniyati. Toshkent, 2007.
5. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. Moskva, 1948.
6. Doniyorov A. Janubiy O‘zbekiston aholisi etnografiyasi. Toshkent, 2010.
7. Турсунов.С.Н ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. Т., “Шарқ”. 2004. -Б.605.
8. Захарова И.В. Материальная культура уйгуров Советского Союза // Среднеазиатзкий этнографический сборник. Т. 2. –М., 1959;
9. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана// Труды АН. ТаджССР. – Сталинабад, 1954. Т. XXVIII; Андреев М.С. Таджики долины Хуф. –Душанбе, 1958;